ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№9
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 356 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni .... 14
Ibragimova Gulsanam Nematovna

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri .... 22
Abduyev Sheroz

Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish .... 25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li

Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili .... 30
Bobojonova Zarina Rashidovna

Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish .... 34
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna

Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi .... 38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili .... 42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna

Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi .... 46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi

TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish .... 50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi

Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish .... 53
Raximberganova Munojat Muzaffar qizi

Structure of Social Conflict and Stages of its Development .... 57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish .... 60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby .... 64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati .... 69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich

Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish .... 72
Baratova Yulduz Asadullayevna

Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati .... 76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi

Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish .... 80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi

Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari .... 84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi

IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari .... 90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna

Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan .... 98
Imomov I., Umirova D.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari .... 104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi

Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetentsiyasini rivojlantirish .... 107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna

Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari.............110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz

Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari................113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna

Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish ...............117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi

Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari ........121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi........126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi

Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari ........131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna

"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari........139
Shukurova Sevara Ilhomovna

Improving High Jump Techniques ........143
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich

Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari........146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников........149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи

Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта ........152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari........157
Abduvaxobova Nodira

Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari........160
Ismailova Nozima Umaraliyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati........164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish ....168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li

Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari ........171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida ........175
Temirova Muyassar Abdukarim qizi

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish........180
Raximova Surayyo Otabek qizi

Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash ........183
Biysenov Temirbek Taumuratovich

Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati........188
Choriyeva Surayyo Choriyevna

Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education ........192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi

Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari........196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna

Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish........201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati.....206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari .......210
Mannanova Nargiza Xaydarovna

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari ........................................215
Masharipova Kumushoy Amin qizi

The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students.....218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish .......................................................222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova

Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich

The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture ........................................230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati ...............................................................................................234
Ramazonova Salomat Saidovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash ...........................238
Saidova Gulruh Halim qizi

O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida).............................................................................................................242
Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna

Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников ................................................246
Истамова Нигора Азимжановна

Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari ..................249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna

Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов ...................253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна

Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida ........................................257
Rashidova Gulnoza G'ulomovna

Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati ....................261
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich

Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar..........................................................................265
Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li

Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari ...........................................................................................................268
Abduraximov Asror Sultonali o'g'li

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.................................................................................................................271
Adizova Nilufar Quvondiq qizi

Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati ................................................274
Alimov Asadulla Urokbayevich

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri ......................................................278
Alimova Umida Jumaboy qizi

Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....................................282
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi....................................286
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish ...........................................................................................................289
Islomova Xafiza Azamatovna

Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish.............................................................293
Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi

Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri..............................298
Kozimova Nargiza Istam qizi

Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili ....303
Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna

Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv .....................................................................................309
Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari ....................313
**Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi**

Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari ................................317
**Muzaffarova Farida Muxtor qizi**

Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari ....................................................................................321
**Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi**

Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi................................324
**Ramazonov Jahongir Djalolovich**

Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar ....................................................................328
**Sadinov Otabek Vaxodirovich**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.................................................332
**Shahobiddinova Zilola Orif qizi**

Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri ............................................335
**Shirinov Otabek Tuvalovich**

Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish........................................338
**Suyarov Kusharbay Tashbayevich**

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati ................342
**Saipova Hilola Abduhamitovna**

"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun..........................................................................346
**Tangirov Zoir Xo'jakulovich**

Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi ....................................................................................350
**Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li**

Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'analarining uzluksiz rivojlanishi ..353
**Seytanov Bayrambay**

# KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA PRAGMATIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI



Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda yuzaga keladigan pragmatik muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada "kommunikativ kompetensiya" atamasi, uning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi pragmatik omillar hamda ularni bartaraf etishga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. O'qituvchilar pragmatik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilarga tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratish uchun samarali metod va yondashuvlardan foydalanishi lozim. Chunki o'quvchilar grammatik jihatdan to'g'ri so'zlash bilan bir qatorda madaniy va ijtimoiy kontekstni hisobga olib, aniq va samarali muloqot qilishni ham o'rganishlari kerak.

**Kalit so'zlar:** Kommunikativ kompetensiya, pragmatik muammo, pragmatik kompetensiya, rivojlanish, to'siqlar, milliy ta'lim tizimi, islohotlar, pedagogik mahorat, nutq.

**Abstract:** This article examines pragmatic problems in the development of communicative competence and possible solutions to them. It also analyzes the concept of "communicative competence," the factors hindering its development, and scientific approaches to overcoming these challenges. In teaching pragmatic skills, teachers are expected to apply effective methods and approaches that provide students with opportunities to use language in real-life contexts. Students, in addition to speaking grammatically correctly, must also learn to communicate clearly and effectively, taking into account cultural and social contexts.

**Key words:** Communicative competence, pragmatic problem, pragmatic competence, development, obstacles, national education system, reforms, pedagogical skills, speech.

**Аннотация:** В статье рассматриваются прагматические проблемы в развитии коммуникативной компетентности и возможные пути их решения. Также анализируются понятие "коммуникативная компетентность", факторы, препятствующие её развитию, и научные подходы к их устранению. При формировании прагматических навыков преподаватели должны использовать эффективные методы и подходы обучения, создавая студентам условия для применения языка в реальных жизненных ситуациях. Студенты, помимо грамматически правильной речи, должны уметь ясно и эффективно общаться, учитывая культурный и социальный контекст.

**Ключевые слова:** Коммуникативная компетентность, прагматическая проблема, прагматическая компетентность, развитие, препятствия, национальная система образования, реформы, педагогическое мастерство, речь.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlari ta'lim tizimi tajribasini o'rganish, tahlil qilish hamda milliy ta'lim tizimimizga mos bo'lgan jihatlarini amaliyotga tatbiq etish bizdagi ta'lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqishda juda muhimdir. Ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda dunyo va jamiyatda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olish, shu asosda qilinadigan ishlarning mazmunini aniqlash ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Til o'rgatishda tilning pragmatik jihatlari ajralmas o'rin tutadi. Pragmatik kompetensiya nafaqat til bilimlarini, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri muloqot qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchilar pragmatik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilarga tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratib berish uchun samarali o'qitish metodlari va yondashuvlaridan foydalanishi lozim. Chunki o'quvchilar grammatik jihatdan to'g'ri so'zlash bilan birga, madaniy va ijtimoiy kontekstni ham hisobga olib, aniq va samarali muloqot qilishni o'rganishlari zarur.

Ijtimoiy va iqtisodiy hayot, fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida deyarli barcha mamlakatlarda bolalar turli xil gadjetlar va internet ta'sirida ulg'aymoqdalar. Bu bir tomondan ularning aqliy rivojlanishi va tafakkurining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan atrofdagilar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida ko'rinmas to'siqlarni yuzaga keltiradi. Chunki hozirgi davrda muloqotning yangi shakli – "onlayn muloqot" keng tarqalmoqda. "Onlayn muloqot"da turli tasvir va simvollardan keng foydalanilishi natijasida jonli muloqot uchun muhim bo'lgan hissiyot, mimika, pantomimika va ta'sirchanlik kabi jihatlar ikkinchi planga tushib qoladi. Natijada esa bolalarda muloqotchanlik ko'nikmalari sekin shakllanishi mumkin.

Shu bois bolalarni erkin va kreativ fikrlaydigan, atrofdagilar bilan qiynalmay muloqot qila oladigan, ona tilini sevadigan, o'zligini anglaydigan, ma'naviy yetuk va o'tkir zehn egalari qilib tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun milliy o'zligimiz timsoli hamda ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tiliga e'tiborni yanada kuchaytirish, uni rivojlantirish va boyitish uchun aniq vazifalarni belgilab olish zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz olimi A. Tenis kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar haqida so'z yuritar ekan, ushbu yondashuv o'quvchilarning tilni kontekstual va madaniy jihatdan to'g'ri qo'llashiga yordam berishini ta'kidlaydi [9]. K. Paluanova esa pragmatik kompetensiyani baholashda hozirgi o'lchov vositalarining samaradorligini o'rganadi [5]. Sh. A. Xodiyeva kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchilarning metodik yondashuvlarining ahamiyatini yoritib, ularning o'quvchilarga ijtimoiy va madaniy normalarni to'g'ri tushunishda ko'mak berishiga alohida urg'u beradi [6]. M. Tursunova kommunikativ kompetensiyani postmetod pedagogikasi orqali rivojlantirishning samaradorligini ko'rsatib, pragmatik muammolarni tizimli hal etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [10]. E. Sadikov esa O'zbekistonda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida uchraydigan pragmatik muammolarni va ularni hal qilish yo'llarini o'rganib, ushbu yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy anglash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi [7].

Rus olimi V. Shchegolev fikricha, til o'rganishda kommunikativ qobiliyatning shakllanishida pragmatikaning alohida o'rni mavjud, chunki tizimli yondashuv o'quvchilarning til malakalarini sinchkovlik bilan baholash imkonini beradi [8]. A. S. Ivanova pragmatika yordamida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini qayd etadi va bu jarayon o'quvchilarga o'zgaruvchan til muhiti sharoitida muvaffaqiyatli muloqot qilishga ko'maklashishini ta'kidlaydi [2]. N. S. Novikova esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolarni ajratib ko'rsatib, o'quvchilarning tilni to'g'ri qo'llashi uchun mavjud metodlarni qanday yaxshilash kerakligini muhokama qiladi [4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida mazkur ishda asosan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va ularni solishtirish usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar xalqaro ilmiy maqolalar, darsliklar hamda O'zbekiston va xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlaridan olindi. Ularning asosiy g'oyalari, yondashuvlari va natijalari qiyosiy tahlil qilinib, mavzuga oid umumiy xulosalar chiqarildi. Shuningdek, kommunikativ va pragmatik kompetensiya masalalarini o'rganishda kuzatuv va mazmuniy tahlil metodlari qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ularning amaliy ahamiyati va ilmiy asoslari aniqlab berildi. Shu orqali mavzuga oid mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Kommunikativ kompetensiya" atamasi ilmiy adabiyotga D. Xayms tomonidan kiritilgan. O'tgan asrning 1960–1970-yillaridan boshlab tilni o'rganishga oid dastlabki kompetensiyalar shakllana boshladi. Xususan, 1972-yilda D. Xayms tomonidan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi fanga kiritilgan. Kompetensiya/kompetentlik kategoriyalari tilni, ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqaruvda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda keng qo'llanila boshlandi. Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda xorijiy tilda samarali muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni va hamkorlikda jamoada ishlash layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunga qadar "kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga bir qancha chet ellik va mahalliy pedagoglar turlicha ta'rif bergan. Masalan, rus pedagogi S. A. Gilmanova o'z ilmiy faoliyatida nolingvistik fakultet talabalari chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilib, ko'plab ta'riflarni keltirgan.

M. Z. Biboletova chet tillarini o‘rganish nuqtayi nazaridan kommunikativ kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini belgilaydi:

1. **Nutqiy kompetensiya** – nutq faoliyatining to‘rtta asosiy turi (gapirish, tinglash, o‘qish, yozish) bo‘yicha muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;

2. **Til kompetensiyasi** – o‘quv dasturiga muvofiq fonetik, imlo, leksik va grammatik vositalarni o‘zlashtirish, o‘rganilayotgan tilning lingvistik hodisalarini bilish hamda fikrni ona va chet tillarida ifodalashning turli usullarini o‘zlashtirish;

3. **Ijtimoiy-madaniy kompetensiya (madaniyatlararo)** – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tajribasi, qiziqishlari va psixologik xususiyatlariga mos mavzular asosida o‘rganilayotgan tilda muloqot qiluvchi mamlakatlarning madaniyati, an’analari va voqeliklari bilan tanishish, shuningdek, madaniyatlararo muloqot nuqtayi nazaridan o‘z mamlakatini va uning madaniyatini ifodalash qobiliyatini shakllantirish;

4. **Kompensatorlik kompetensiyasi** – axborotni qabul qilish va uzatishda til vositalari yetishmagan vaziyatda muammoli holatdan chiqib ketish ko‘nikmasini shakllantirish. Bu jarayon o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish, tashkilotchilik, kamtarlik, talabchanlik, jamoada ishlash, faollik va kreativlik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Moghaddam, Murray va Mirfendereski kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolarni o‘rganib, ushbu yondashuv o‘quvchilarning pragmatik ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga qanday ta’sir qilishini tahlil qilgan [3]. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, pragmatik muammolar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tizimli tashkil etishga to‘sqinlik qiladi va o‘qituvchilarga o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirishda qiyinchilik tug‘diradi.

Kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri pragmatik kompetensiya bo‘lib, u til vositalarining ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlatilishini anglashni o‘z ichiga oladi. Afsuski, til o‘rganuvchilarda aynan shu sohada muammolar tez-tez uchraydi. Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan pragmatik muammolar va ularning samarali yechimlari tahlil qilinadi.

Pragmatik muammolar, odatda, quyidagi holatlarda yuzaga keladi:

1. **Kontekstga mos bo‘lmagan so‘zlashuv.** O‘quvchi yoki talaba nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzadi, biroq vaziyatga mos kelmaydigan iboralarni qo‘llaydi (masalan, rasmiy vaziyatda norasmiy muomala qilish).

2. **Iltifot va madaniyat farqlarini tushunmaslik.** Har bir tilning o‘ziga xos madaniy konteksti mavjud. Masalan, ingliz tilidagi “Could you please...?” iborasi odobli so‘rov sanalsa, boshqa madaniyatlarda bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruqqa o‘xshab ko‘rinishi mumkin.

3. **Ironiya va kinoyani anglamaslik.** Pragmatik kompetensiyasi past bo‘lgan o‘quvchi kinoya, istehzo yoki yumoristik ifodalarni so‘zma-so‘z tushunadi, bu esa noto‘g‘ri talqinlarga olib keladi.

4. **Nutq aktlarini farqlamaslik.** Masalan, buyruq, maslahat, so‘rov va taklif kabi nutq aktlarini kontekstga qarab farqlay olmaslik.

Kommunikativ kompetensiyani, xususan, pragmatik jihatdan rivojlantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

a) **Autentik materiallardan foydalanish.** Film, serial, podkast va tabiiy suhbatlardan olingan parchalar orqali real hayotdagi muomalani kuzatish va tahlil qilish pragmatik bilimni oshiradi.

b) **Rol o‘ynash mashqlari (role-play).** O‘quvchilarga turli ijtimoiy vaziyatlar berilib, ularda qanday muomala qilishni mashq qilish orqali kontekstga mos tilni tanlash ko‘nikmasi shakllanadi.

c) **Madaniyatlararo taqqoslash (cross-cultural comparison).** Biror ibora yoki nutq aktining ona tilida va o‘rganilayotgan tildagi qo‘llanishini taqqoslash orqali pragmatik tafovutlar o‘rganiladi.

d) **Metapragmatik mashqlar.** Talabalarga iboralarning qachon, qayerda va kimga nisbatan qo‘llanishini muhokama qilish topshiriqlari beriladi.

e) **Xatoliklarni tahlil qilish.** O‘quvchilarning pragmatik xatolarini tahlil qilib, ularga sabab va yechimlarni tushuntirish keyingi safar ularni oldini olishga yordam beradi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan pragmatik kompetensiyani rivojlantirish til o'rganishda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu sohadagi muammolar – kontekstga mos kelmagan so'zlashuv, madaniyatlararo farqlarni anglamaslik va ironiyani to'g'ri tushunmaslik – o'z vaqtida samarali metodlar yordamida bartaraf etilishi mumkin.

Til o'rgatuvchilarning asosiy vazifasi shundaki, ular dars jarayonida nafaqat grammatik bilimlarni, balki kommunikativ hamda madaniy jihatlarni ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Faqat shundagina til o'rganish jarayoni samarali bo'ladi va o'rganuvchi yangi til muhitida o'zini erkin hamda ishonchli tutishni o'rganadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Frolov, V. From saying it right to doing it right: A model of pragmatic competence development. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 7. – 2023, 167–171 pp.
2. Ivanova, A. S., & Soboleva, N. I. Realization of communicative pragmatic model of teaching in the textbook for foreign students. Polylinguality and Transcultural Practices, 1(1). – 2010, 19–23 pp.
3. Moghaddam, M. M., Murray, N., & Mirfendereski, Y. Pragmatic competence as a regulator of foreign language speaking proficiency. Porta Linguarum: An International Journal of Foreign Language Teaching and Learning, 33. – 2020, 163–182 pp.
4. Novikova, N. S., & Budiltseva, M. B. Standards of speaking, speech etiquette, and formation of communicative competence. Polylinguality and Transcultural Practices, 4(4). – 2013, 832 p.
5. Paluanova, K. Pragmatic dimensions in language learning. EPRA International Journal of Research & Development, 8(11). – 2023, 342 p.
6. Xodiyeva, Sh. A. Integrating pragmatic competence into English language classes. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6). – 2022, 1441–1444 pp.
7. Sadikov, E. Teaching pragmatic competencies as a methodical problem in Uzbekistan. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education, 2(10). – 2024, 449–454 pp.
8. Shchegolev, V. Pragmatic dimensions in language learning. EPRA International Journal of Research & Development, 8(11). – 2023, 764 p.
9. Tenis, A. The role of taxonomy in developing pragmatic competence. Journal of Language Education, 14(3). – 2024, 45–58 pp.
10. Tursunova, M. Developing pragmatic competence of Uzbek ESL learners through postmethod pedagogy. News of the NUUz, 1(1.8.1). – 2024, 191–194 pp.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.